

RIVOJLANGAN DAVLATLAR, XUSUSAN AQSH TAJRIBASI ASOSIDA O‘ZBEKISTONDA NODAVLAT UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Sharipova Zumrad Zarif qizi

Farg‘ona Davlat Universiteti

1-bosqich magistranti

zumrad.sharipova.03@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada AQSHdagi charter maktablar faoliyati misolida O‘zbekistonda nodavlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini rivojlantirish istiqbollari tahlil qilingan. Ta’lim sifati, raqobat muhiti, moliyalashtirish, mustaqil boshqaruv kabi omillar orqali ta’lim tizimining samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, nodavlat ta’lim muassasalarining O‘zbekistonda huquqiy maqomini kuchaytirish, ularni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: nodavlat maktablar, AQSH tajribasi, charter maktab, ta’lim sifati, moliyalashtirish, innovatsiya, raqobat, ta’lim islohotlari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены перспективы развития негосударственных общеобразовательных школ в Узбекистане на примере опыта чартерных школ США. Анализируются такие аспекты, как качество образования, конкурентная среда, финансирование и независимое управление. Также обоснована необходимость усиления правового статуса и поддержки негосударственного сектора образования в Узбекистане.

Ключевые слова: негосударственные школы, опыт США, чартерные школы, качество образования, финансирование, инновации, конкуренция, реформы образования.

ANNOTATION

This article analyzes the prospects for developing non-governmental general secondary schools in Uzbekistan based on the experience of charter schools in the USA. The paper highlights key factors such as education quality, competitive environment, financing, and independent governance. It also emphasizes the need to strengthen the legal status and support mechanisms for private education institutions in Uzbekistan.

Keywords: non-governmental schools, US experience, charter schools, education quality, financing, innovation, competition, education reforms.

Kirish (Introduction)

Har bir davlatning iqtisodiy qudrati, siyosiy barqarorligi, madaniy taraqqiyoti va xalqaro maydondagi mavqei avvalo uning ta'lim tizimiga bog'liq. Shu bois, bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida isloh qilish har qanday jamiyat taraqqiyotining muhim tayanchiga aylangan. O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ta'lim tizimiga ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilish, uni iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish ustuvor yo'nalishga aylangan.

Ta'lim tizimini difersifikatsiyalash, xususan nodavlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarini rivojlantirish orqali ta'limda raqobatbardoshlikni kuchaytirish, sifatni oshirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish maqsad qilingan. Ushbu maqolada AQSHdagi charter maktablar tajribasi asosida O'zbekistonda nodavlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarini rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi.

Uslublar (Methods)

Mazkur tadqiqotda ta'lim tizimining ikki mamlakatdagi huquqiy asoslari, tashkil etilishi, boshqaruvi va moliyalashtirish tizimi qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. AQSHdagi charter maktablar to'g'risidagi ma'lumotlar ochiq manbalar (NCES, OECD, World Bank) orqali to'plandi. O'zbekistondagi nodavlat maktablarning soni, sifati va faoliyatini belgilovchi hujjatlar, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hisobotlari, Prezident farmonlari asosida o'rganildi. Tahlil qiyosiy, statistik va normativ-huquqiy yondashuvlar asosida olib borildi.

Natijalar (Results)

AQSHda faoliyat yuritayotgan 120 ming maktabning 30 foizi nodavlat (shu jumladan charter) maktablardir. Charter maktablar davlat tomonidan moliyalashtiriladi, biroq ular o'z ta'lim dasturlarini mustaqil shakllantirish, o'qituvchilarni jalb qilish va boshqaruv tizimini erkin tanlash huquqiga ega.

Ularning muvaffaqiyati ota-onalarning erkin tanlovi, raqobat muhiti va jamoatchilik nazorati bilan bevosita bog'liq.

O'zbekistonda esa nodavlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari soni ortib bormoqda, biroq ularning ta'sir kuchi, sifat ko'rsatkichlari va innovatsion yondashuvlari hali yetarli emas. Ta'lim tizimining barcha bosqichlari, xususan maktabgacha ta'limdan oliy ta'limgacha bo'lgan zanjirda demokratik yondashuvga asoslangan islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda ta'lim tizimi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va o'rtacha 11 yillik umumiy o'rta ta'limni o'z ichiga oladi. Ayni paytda davlat va xususiy maktablar bilan birga, diniy va chet el fuqarolari uchun ochiq ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda.

Muhokama (Discussion)

AQSH tajribasi shuni ko'rsatadiki, charter maktablar ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy etish, byurokratik to'siqlardan holi bo'lish va jamoaviy

boshqaruv asosida yuqori natijalarga erishishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Xususiyl sektorning ta'lim sohasidagi ishtiroki dunyo miqyosida o'tgan 20 yil mobaynida dramatik ravishda o'sib bordi. Ayniqsa, ushbu munosabatlar Buyuk Britaniya, Amerika, Kanada, Avstraliya, Koreya, Hindiston va boshqa ko'plab mamlakatlar ta'lim sohasida muvaffaqiyatli qo'llanilgan. Qayd etilgan mamlakatlarda sheriklik munosabatlari qo'yidagi yo'nalishlarda rivojlanmoqda. Rivojlangan davlatlarda DXSh ning ta'lim tizimidagi yo'nalishlari:

Amerikada ta'lim muassasasida mulk huquqi davlat ixtiyorida saqlab qolinadi, lekin, mulkni boshqarish xususiyl sektorga o'tkaziladi. Shu bilan birgalikda, ushbu mamlakatda kam ta'minlangan aholini ta'limga qamrab olish maqsadida davlatning vaucher va subsidiya dasturlari mavjud.[1] O'zbekiston uchun bu modelni mahalliy sharoitga moslashtirib qo'llash quyidagi afzalliklarni beradi:

Nodavlat ta'lim muassasalarining huquqiyl maqomini mustahkamlash;

Moliyaviyl yordam va grant tizimlarini joriyl qilish;

Litsenziyalash va akkreditatsiya jarayonlarini soddalashtirish;

Ta'limda monitoring va baholash mezonlarini takomillashtirish;joriyl

O'quvchilarni faollikka undaydigan, shaxsga yo'naltirilgan usullarni keng etish. Yevropa mamlakatlarida an'anaviyl maktablarda bolalar ta'limini tashkil qilishning heterojen tamoyili mavjud.[2] Mening fikrimcha, O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish jarayonida aynan Yevropa ta'lim tizimidagi heterojen tamoyildan o'rnak olish maqsadga muvofiq. Har bir o'quvchining individualligini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini, balki ularning ijtimoiyl faolligini, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu asosda, mahalliy sharoitda moslashtirilgan holda, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodlarini yanada keng joriyl etish zarur deb hisoblayman.

Dunyodagi o'zgaruvchan sharoit bilan bog'liql ravishda pedagogik usullar doimiy ravishda takomillashib boradi. Ko'p sonli xalqaro konferensiyalar, dolzarb mavzular ko'tarilgan kongresslar bo'lib o'tmoqda. Umumiy ma'naviy taraqqiyot bilan bog'liql holda, ta'limda hali ham "tabiatdan ajralgan" degan fikr mavjud .[3]

Bundan tashqari, ommaviyl madaniyatning ta'siri ostida O'zbekistonda milliy qadriyatlar asosida shakllanadigan ta'lim mazmunini saqlab qolish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Maktablarda shaxsni tarbiyalashga xizmat qiluvchi baholash tizimi, ijodiy mashg'ulotlar, ta'til va darsdan tashqari loyihalar o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojiga xizmat qiladi. Albatta, boshqa mamlakatlar ta'limiy qadriyatlarini, pedagogik tajribasini O'zbekiston ta'lim tizimiga to'liql tatbiql etish imkoni yo'q. Har bir millatning o'z mentaliteti mavjud bo'lib, u umumiy ta'lim tizimiga bevosita ta'sir qiladi, ta'lim sohasidagi integratsiyaning global tendensiyalari tufayli bunday tadqiqotlar turli millatlarning bir-birini yanada yaxshiroql tushunishiga yordam beradi. Mamlakatlardagi ijtimoiyl-iqtisodiy tendensiyalarning aksariyati umumiy, global

xarakterga ega va dunyodagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yoshlar ongiga bevosita ta'sir qiladi.[4]

Xulosa (Conclusion)

Xulosa qilib aytganda, AQSHdagi charter maktablar faoliyati O'zbekistonda nodavlat ta'lim sektorini takomillashtirishda amaliy asos bo'la oladi. Bunday maktablarning erkinligi, jamoatchilik ishtiroki, innovatsion yondashuvi va davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi yuqori samaradorlikka olib kelmoqda. O'zbekistonda ham nodavlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun huquqiy, moliyaviy va metodik infratuzilmani mustahkamlash zarur. Bu esa raqobatbardosh, innovatsion va sifatli ta'lim tizimiga asos bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Patrinos H.A., Barrera-Osorio F., Guaqueta J. The role and impact of public-private partnerships in education. The International Bank for Reconstruction and Development. The World Bank, 2009
2. Nasiba E. Azimova, Lola S. Eliboeva, Gulya G. Habibova, Ulmasoy U. Kurbanova. Youth Is Moving Force of Civil Society. Eastern European Scientific Journal 01-2019
3. Nasiba E. Azimova, Lola S. Eliboeva, Gulya G. Habibova, Ulmasoy U. Kurbanova. Youth Is Moving Force of Civil Society. Eastern European Scientific Journal 01-2019
4. Курбонова У.У. Особенности дидактических исследований, проведенных в Узбекистане в годы независимости. Международные образовательные, научные и социально-культурные технологии: векторы развития. Сборник материалов Международной научной конференции профессорско-преподавательского состава и молодых ученых России и Узбекистана. Издательство «Дурдона». Челябинск – Ташкент – Бухара - Самарканд 2020. Ст.65-68